

BARCHASI SHU YERDAN VA SHU ONDAN BOSHLANADI

# TA'LIM ZIYOSI

Chirchiq davlat pedagogika universitetida taniqli adib va publitsist, Xalqaro Cho'lpon mukofoti sovrindori, "Xalq so'zi" va "Narodnoe slovo" gazetalarining Bosh muharriri O'tkir Rahmat bilan "So'z va vijdon uyg'unligi" deb nomlangan adabiy-badiiy kecha bo'lib o'tdi.

Tadbirni universitet rektori G'afurjon Muxamedov ochib, O'tkir Rahmatning ko'p yillik samarali ijodiy faoliyati, uning o'zbek jurnalistikasi va adabiyoti rivojiga qo'shgan ulkan hissasi haqida so'z yuritdi.

So'zga chiqqanlar adibning asarlari, publitsistik maqolalarida jamiyatdagi dolzarb masalalar, ma'naviy qadriyatlar va zamon ruhi o'z aksini topganligini alohida qayd etishdi.

Ta'kidlanganidek, adib ijodida hayotiylik, samimiyat va xalq dardini chuqur his etish kabi fazilatlar yaqqol namoyon bo'ladi. Uning asarlari xolislik, aniq fikr va ta'sirchan uslub bilan ajralib turadi. Ayniqsa, inson qalbining nozik tuyg'ulari, Vatanga muhabbat va hayot haqiqatlarining mahorat bilan ifodalanihi har bir o'quvchini befarq qoldirmaydi.

Ijodiy kecha davomida talabalar tomonidan adibning she'rlaridan namunalar o'qildi. Bu chiqishlar tadbirga ruhiy zavq bag'ishlab, ishtirokchilarda adabiyotga bo'lgan qiziqishni yanada oshirdi. Shuningdek, talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob olib, ijod va jurnalistika borasida muhim tavsiyalarga ega bo'ldi.

Uchrashuv so'ngida mehmonga samimiy minnatdorlik bildirilib, bunday uchrashuvlar yosh avlodni tarbiyalashda, ularning ma'naviy dunyoqarashini boyitishda beqiyos ahamiyatga ega ekani

## SO'Z VA VIJDON UYG'UNLIGI



alohida ta'kidlandi.

Tadbirida O'tkir Rahmatga Chirchiq davlat pedagogika universitetining "Faxriy

professori" ilmiy unvoni topshirildi. Bu esa adibning ijodi va jamiyatdagi o'rniga berilgan yuksak e'tirof bo'ldi.

## UNIVERSITET GAZETASI

4-son  
Gazeta ichida gazeta

### MUHAMMAD YUSUF XOTIRASIGA

Tanish bo'lgan teraklarga ash'or bitgan,  
Hamon lolman shoiring qalb osmoniga.  
Yolg'onchi yor va'dasidan kuyib ketgan,  
Misralari botgan kabi o'z qoniga.

Ishq kemasi ila ketdi chamaniga,  
Kiyiklarni kuyilgan u shoir qani?  
Pok ko'nglida parvoz qildi osmoniga,  
Bulbul ishqin so'ylagan u shoir qani?

El dardini o'z dardidek bilgan edi,  
Tig'dek sanchib qalamini u joniga.  
Soydek jo'shib, daryo kabi to'lgan edi,  
Hamon lolman shoiring qalb osmoniga.

Usmon, Cho'lpon chorlaganda o'z yoniga,  
Yor-do'stlaring yuragida quyosh so'ndi.  
Hamon lolman shoiring qalb osmoniga,  
Pok nomini tuproqqamas qalbg ko'mdi.

Ul osmonda iymon zavqi toshar edi,  
Aslo dildan o'chmagaydir nomi bugun.  
Hamon lolman shoir qalbning osmoniga,  
Xalqim aziz qilgan uni So'zi uchun.

Nigina BOBOYEVA,  
Tabiiy fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi

### USTOZINGA

Gulandom Tog'ayevaga  
Siz asli men uchun ikkinchi ona,  
Siz bilan hamohang o'lgan nafas.  
Sizdek ayol yo'qdir, sizziz yagona,  
Ustozim, men sizga qilaman havas...

Har bitta she'rlarim dildan tinglagan,  
Ko'nglidagi mehri bo'lmagan abas.  
Shodlikda quvonib, g'amda yig'lagan,  
Ustozim, men sizga qilaman havas.

Siz bilan mazmunli har bitta lahza,  
Fayzlanib porlaydi siz yurgan makon.  
Cho'chimam – she'riyat eshigim qoqsa,  
Axir she'r emasmi otgan yangi tong.

Har maysa so'zlaydi ko'ngil rozini,  
Har butoq hayotga jonlanib qaytar.  
Qaldirg'och keltirar bahor sozini,  
Qarang, ustoz, bahor alyorlar aytar.

Har dam ko'zingiz quvonchdan yonsin,  
Qalbingiz iymonga, ilmga to'lsin.  
Toki boqiy mehr qalbdagi uyg'onsin,  
Ustoz, yangi bahor muborak bo'lsin.

Yasmina RAHMATULLAYEVA,  
Gumanitar fanlar fakulteti  
2-bosqich talabasi

### TIRIKLIKDAN KUYLAYDI QALAM

Dunyoning ishlari o'tkinchi har dam,  
Hoy-u havaslarga berilma hech ham.  
Chin baxtning egasi – sabr qilganlar,  
Ko'ngil aldanadi, topolmay malham.

Sajdaga egilgan har bir egik bosh,  
Duolar qilganda so'zsiz oqqan yosh.  
Qalbing mahzunlikka etolsin bardosh,  
Do'stim, sabr bo'lsin senga chin yo'ldosh.

Ishq dog'i osonmas, ko'ngil yig'laydi,  
Qara, bugun osmon qanday sof, tiniq,  
Derzamda bahor, qaldirg'och chah-chah,  
Demak, diydor yaqin, qalbdagi o't yoniq.

Bizning muhabbatga jo'r bo'lar olam,  
Bizning diydorimiz tansiq, mukarram.  
Hayot, tiriklikdan kuylaydi qalam,  
Chirchiq bo'ylariga yetib kel, sen ham...

Jasmina SUVONOVA,  
Gumanitar fanlar fakulteti 1-bosqich talabasi

## SHE'RIYATNING IKKI YULDUZI

Universitetning Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakultetida qozoq va o'zbek she'riyatining ikki porloq yulduzi – Zulfiya Isroilova va Fariza O'ng'arsinova ijodiga bag'ishlangan "She'riyatning ikki yulduzi – Zulfiyaxonim va Fariza" nomli adabiy-madaniy kecha bo'lib o'tdi. Ushbu mazmunli tadbir nafaqat she'r kechasi, balki ikki xalqning ruhiy yaqinligi va madaniy uyg'unligini namoyan etgan muhim uchrashuv bo'ldi.



Kechaning asosiy maqsadi – yoshlarni ikki shoironing boy ijodiy merosi bilan keng tanishtirish, ularning she'riyatida aks etgan insoniylik, muhabbat, noziklik va matonat kabi yuksak fazilatlarni targ'ib etish, shuningdek, qozoq va o'zbek xalqlari o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlashdan iborat bo'ldi. Tadbir davomida tomoshabinlar ikki shoironing hayot yo'li va adabiyotdagi o'rnini haqida ma'lumot olib, ularning yuraklarga yetib boruvchi she'rlarini tingladilar.

Kechani mazkur fakultet professori

Tarmiza Xurvaliyevna ochib berib, she'riyat olamining ikki malikasi, ularning asarlari va ijodiy yo'li haqida to'xtalib o'tdi. Boshlovchilar ham Zulfiyaxonim va Fariza O'ng'arsinova ijodidagi uyg'unlikni alohida ta'kidladilar. Darhaqiqat, ikki shoironing she'rlarida ayol taqdiri, hayot mazmuni, muhabbat va sadoqat, ruhiy poklik chuqur aks etgan.

Zulfiya she'riyati o'zining nozik lirizmi, qalb torlarini chertuvchi samimiyligi bilan ajralib turadi. Uning she'rlari inson qalbidagi eng nozik tuyg'ularni ifodalab, o'quvchini

mehr-oqibat va ezgulikka chorlaydi. Fariza O'ng'arsinova she'riyati esa – matonatli ruh, jasoratli fikr va kurashchan xarakter ifodasidir. U o'z asarlarida ayolning jamiyatdagi o'rnini, hayot qiyinchiliklariga qarshi turuvchi kuchli irodani yorqin tasvirlaydi. Shu tariqa, ikki shoironing ijodi bir-birini to'ldirib, she'riyat olamida o'ziga xos uyg'unlikni yuzaga keltiradi.

Tadbir davomida talabalar faol ishtirok etib, ikki shoira she'rlarini yoddan o'qib, tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdilar. Yoshlarning sahnadagi samimiy chiqishlari ularning she'riyatga bo'lgan muhabbati va hurmatini yaqqol namoyan etdi. Shuningdek, kecha davomida go'zal qo'shiqlar yangradi, milliy raqslar ijro etildi, do'mbiraning jarangdor sadolari esa tomoshabinlarga unutilmas lahzalar ulashdi. Musiqa va raqs san'ati she'riyat bilan uyg'unlashib, kechoning mazmunini yanada boyitdi. Tomoshabinlar ham faqat tinglovchi bo'lib qolmay, balki faol ishtirokchi sifatida blitz-savollarga javob berdilar.

– Bu adabiy kecha nafaqat san'at bayrami, balki millatlararo do'stlikning yorqin namunasi bo'ldi. Qozoq va o'zbek tillarida olib borilgan dastur ikki xalq madaniyatining yaqinligini va ruhiy aloqalarning mustahkamligini ko'rsatdi. Bunday tadbirlar yoshlarni totuvlikka, o'zaro hurmat va tushunishga tarbiyalaydi, – deydi universitet o'qituvchisi va tadbir tashkilotchisi Abseyt Rustemov.

"She'riyatning ikki yulduzi – Zulfiyaxonim va Fariza" nomli adabiy-madaniy kecha yuqori saviyada tashkil etilib, ishtirokchilar va tomoshabinlarga katta ruhiy ta'sir ko'rsatdi. Zulfiyaxonim va Fariza O'ng'arsinova merosi – abadiy qadriyat, avloddan avlodga o'tib boradigan bebaho xazina ekanligi yana bir bor isbotlandi.

## EKO-CHELLENJ: TALABALAR QANDAY FIKRDA?

So'nggi yillarda dunyoda atrof-muhit plastik chiqindilar bilan ifloslanishi muammosiga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Ushbu muammoni hal qilishning usullaridan biri bu – plastik idishlar va chiqindilarni yig'ishdir.

21 aprel kuni Pedagogika fakulteti talabalari an'anaviy plastik va boshqa turdagi chiqindilarni yig'ishga undaydigan "Mendan keyingi 1000 qadam – seniki" eko-chellenjga start berdi. Talabalarining bu boradagi fikrlari bilan qiziqdik:

**Gulirano Eshqo'ziyeva:** "Men Pedagogika fakulteti yoshlari eko-chellenj o'tkazayotganidan juda mamnunman, chunki bu sayyoramizni kelajak avlodlar uchun saqlab qolishga yordam beradigan muhim ijtimoiy tashabbusdir. Biz o'z Universitetimizni yanada yaxshi va toza joyga aylantirishimiz uchun bunday tashabbuslar barcha talabalar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi kerak, deb o'ylayman."

**Shirinjon Axmedova:** "Eko-chellenjlar atrof-muhitning ifloslanishi muammosiga e'tiborni qaratishning ajoyib usuli deb o'ylayman. Universitet yoshlari Chirchiq shahrimiz ozodaligini ta'minlash yo'lida juda muhim vazifani bajarmoqda. Umid qilamanki, ko'pchilik yoshlar ushbu ekologik tashabbusga qo'shiladi va shahar

eko faollari uni qo'llab-quvvatlaydilar."  
**Munavvar Qobilova:** "Chellenj juda qiziqarli va ma'rifiy bo'ldi. Men tabiat manfaati uchun chiqindilarni qanday ishlatish haqida ko'p narsalarni bilib oldim. Men ushbu eko-chellenjda qatnashib, atrof-muhitni asrashga hissa qo'shganimdan xursandman. Universitetdagi barcha yoshlar eko-kun tartibiga befarq qolmadi. Har kim oz bo'lsada, sayyoramizni asrab-avaylashga o'z hissasini qo'sha oldi."

**Ruxshona Po'latboyeva:** "Chellenj yoshlar o'rtasidagi eng qiziqarli mashg'ulotlardan biridir. Bu orqali talabalar chiqindilar bilan bog'liq global muammoga e'tibor qaratishdi. Ishonchim komilki, ushbu tadbirda ishtirok etish mening sayyoramizni muhofaza qilishga hissa qo'shishimga yordam beradi. Ushbu tashabbus uchun Pedagogika fakulteti yoshlariga rahmat."

**Sabina OMAROVA,**  
Pedagogika fakulteti tyutori



## AMALIYOT VA TAJRIBA UYG'UNLIGI

Pedagogika fakulteti qoshida faoliyat yuritayotgan "Inklyuziv ta'lim" ilmiy-amaliy laboratoriyalarida amaliy mashg'ulotlar izchil va samarali tashkil etilmoqda. Xususan, amaliy logopedik laboratoriya faoliyati doirasida talabalar nutqiy nuqsonlarni aniqlash, ularni tahlil qilish hamda bartaraf etish bo'yicha zarur ko'nikmalarni egallamoqdalar.

Mashg'ulotlar davomida logopedik tekshiruv usullari, korreksion yondashuvlar hamda zamonaviy amaliy metodlar asosida tizimli ish olib borilmoqda. Bu jarayon talabalarining nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, ularni amaliy faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, laboratoriya ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, kuzatuvlar olib borish va amaliy natijalarni tahlil qilish uchun ham zarur sharoit yaratmoqda. Mazkur faoliyat bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlash va ilmiy yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, "Inklyuziv ta'lim" ilmiy-amaliy laboratoriyasi ta'lim jarayonini amaliyot bilan uyg'unlashtirish orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlashda muhim platforma sifatida namoyon bo'lmoqda.



Universitetimizda talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni san'atga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maqsadli va tizimli loyihalar amalga oshirib kelinmoqda. Ta'lim muassasasi tashkil etilganligiga qisqa fursat bo'lishiga qaramay ijodkor talabalar milliy tanlovlarda g'olib bo'lib, xalqaro doirada e'tirof etilmoqda.

MILLIY TEATRD  
KO'RISHAMIZ!

Kuni kecha Andijon viloyati musiqali drama teatrida Respublika talabalar teatr studiyalari o'rtasidagi festivalning 3-mintaqaviy bosqichi bo'lib o'tdi. Mazkur tanlovda universitetimizning "Mehr" teatr jamoasi munosib ishtirok etib, Xurshid Do'stmuhammad qalamiga mansub "Jinlar bazmi" spektaklini mohirona ijro etib, yig'ilganlarda katta taassurot qoldirishdi.



Ushbu spektaklda 1926 yilda "Mushtum"da bosilgan "Yig'indi gaplar" maqolasi tufayli qisqa muddat qamalagan Abdulla Qodiriyning qamoqdagi hayoti qamrab olingan. Tomoshabinlar talabalar ijrosidagi hayotiy va ta'sirchan sahnalarni katta qiziqish bilan kuzatishdi.

Ko'rik-tanlovda universitetimizning "Mehr" nomli teatr jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritib, respublika bosqichiga yo'llanma oldi. Talabalar teatri – katta sahnalarda kurashni iyun oyida davom ettiradi. Ijodiy jamoaga kuch-quvvat, omad va ko'tarinki kayfiyat tilaymiz!

**Ushbu qo'shsahifa Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot xizmati tomonidan tayyorlandi.**

UNIVERSITETDA XALQARO  
SAN'AT FESTIVALI

22-aprel kuni universitetimizda "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili"ga bag'ishlangan xalqaro an'anaviy tasviriy va amaliy san'at festivali bo'lib o'tdi.

Tadbir O'zbekiston Badiiy akademiyasi va O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi tomonidan Toshkent viloyati hokimligi ko'magida tashkil etildi.



Xalqaro an'anaviy tasviriy va amaliy san'at festivali milliy san'atimizning avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan boy merosini targ'ib etish, o'zbek tasviriy va amaliy san'ati yutuqlarini keng tanitish, ijodiy almashinuv, yangi iste'dodlarni yuzaga chiqarish, ustoz-shogird an'alarini davom ettirishga xizmat qilmoqda.

Festivalda universitetning ko'rgazma zallari va san'at pavilonlarida taniqli ijodkorlar, ustalarning saralangan asarlari asosida ko'rgazmalar,



mahorat darslari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlar, oliy va o'rta, ixtisoslashgan va umumiy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yosh ijodkorlarning ijodiy loyihalari namoyishi bo'lib o'tdi.

